

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. HURMAT KATEGORIYASINING XUSUSIYATLARI.....	
1.1. Hurmat kategoriyasining norasmiy uslubi.....	
1.2. Hurmat kategoriyasining leksik uslubi.....	
II BOB. O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA HURMAT KATEGORIYASINING LINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK QIYOSIY TAHLILI.....	
2.1. O'zbek va koreys tillarida hurmat kategoriyasining lingvistik xususiyatini ifoda etuvchi so'zlar.....	
2.2. O'zbek va koreys tillarida hurmat kategoriyasining ekstralingvistik xususiyatini ifoda etuvchi so'zlar.....	
XULOSA.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	

KIRISH

«...o'qish, o'qitish, tarbiya ishlarida davr talabi
asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur»

Abdulla Avloniy

O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat va san'at, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirishdir. Chunki har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Zero, ilm bobidagi izlanish insonni ma'naviy, axloqiy – estetik kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham Prezidentimizning “Biz mamlakatimizni modernizatsiya qilish, ...dunyodagi taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kirishni o'z oldimizga buyuk maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, ta'lim tarbiya sohasini aslo bo'shashtirmasdan, yangi va yuqori bosqichlarga ko'tarishni talab etmoqda”¹, - degan fikri ta'limni tarixiy qadriyatlar va an'analarga yangicha yondashuv va texnologiyalarni joriy etish asosida takomillashtirishga undaydi.

Tarixan til serqirra ijtimoiy hodisa bo'lib, u har bir kishi uchun, har bir mutaxassis uchun ma'naviy, madaniy jihatdan chuqur ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham til, til ta'limi, uni chuqurroq tadqiq etish, xususan, ona tilimizni chet tillari bilan qiyosiy o'rganish, ayniqsa, o'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan so'ng ham mamlakatimiz filolog olimlari o'rtasida o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Xalqlar madaniy, ma'naviy tarafdin bir-birini boyitishlari evaziga har jihatdan rivojlanish qaror topadi. Chet tili, xususan, koreys tilining mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qitilishi shu ikkala davlatning har sohada teng sherikchilik asosida rivoj topishiga, tillarni tillarga, dillarni dillarga bog'lashda asosiy omillardan biri deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalari, xususan, oliy o'quv

¹Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish –mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. – T.: O'zbekiston, 2011. T. 19. 25-26 b.

yurtlarining koreys tili ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari shu yo'nalish bo'yicha bakalavr akademik darajasiga erishgandan so'ng xalq xo'jaligining turli sohalarida mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan ravnaq topishi yo'lida o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Shu nuqtai nazardan, sharq tili hisoblanmish koreys tili fanini amaliy hamda nazariy o'zlashtirishda tilning grammatik qatlamini, xususan, biz tanlagan mavzu – gap bo'laklari, uning o'rganilayotgan til hamda ona tili bilan qiyosiy tipologik talqin etilishi, mazkur so'z turkumi darajalarining tadqiq etilishi, aynan, amaliy dars mashg'ulotlari mobaynida koreys tilidan ona tiliga, ona tilidan koreys tiliga qilinadigan tarjima mashqlari o'z samarasini berishi, uni ta'lim islohoti jarayonida yanada takomillashtirish tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga asoslanadi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamizda fan va ta'lim sohasidagi islohotlarga, yetuk kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”² buning yorqin ifodasidir.

Bugungi kunda fan-texnika, iqtisod, xalqaro munosabat va xalqaro madaniyatlarning rivojlanishi dunyodagi ko'plab mamlakatlarning tarixi, madaniyati, iqtisodi va siyosatini chuqurroq tushunishga va tahlil qilishga imkon beryapti. Bu borada XX-asrning oxirgi o'n yilligida ko'plab sohalarda yutuq va muvaffaqiyatlarga erishgan Koreya Respublikasi ham bu borada chetda qolmadi. Koreya bilan turli sohalarda hamkorlik qilayotgan va hamkorlik o'rnatish istagidagi davlatlar avvalam bor, ushbu ajoyib mamlakatning tarixi, madaniyati hamda urf-odatlarini o'rganish barobarida, Koreya Respublikasining qisqa fursat ichida qo'lga kiritgan yutuq va muvaffaqiyatlarining asosi bilan ham qiziqadilar. Ammo, ko'pchilikning koreys tilini bilmasligi, yuqoridagi hoxish-istaklarning amalga oshishida qandaydir ma'noda to'siq bo'lishi mumkin deya ayta olamiz. Aynan

²O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – T., 1997.

shuning uchun ham, xozirgi kunda koreys tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning jadal sur'atlar bilan oshishi ajablanarli xol emas.

Prezidentimizning 2011 yil 21 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy – texnnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora – tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari ta'lim tizimini to'liq isloh qilish va malakali mutaxassislar tayyorlashni yo'lgaqo'yishni nazarda tutadi.

2012 yil 16-17 fevral kunlari Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida o'tkazilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi konferentsiya xalqaro jamiyatni O'zbekistonda ta'lim sohasida amalgaoshirilayotgan islohotlar samaralari, yuksak bilimli hamda intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda davlatning roli va bu borada to'plangan tajriba bilan keng tanishtirish imkonini berdi.

Prezidentimiz ta'kidlaydilarki, «yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash» zarur (*K a r i m o v I.A.* Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zR Oliy Majlisi 1X sessiyasida so'zlangan nutq, 1997 yil 29 avgust.– Toshkent, 1997, 4-bet.). Binobarin, ta'lim jarayonini, o'qitish sifatini tubdan yaxshilash davlatimiz olib borayotgan ko'p qirrali siyosatda asosiy vazifalardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Uni amalga oshirish uchun esa ma'lum mavzu doirasida keng va atroflicha bilim beradigan hamda bu bilimlarni milliy istiqlol g'oyalari bilan, milliy mafkura va dunyoqarash hamda uzoq yillar davomida shakllangan ma'naviyatimiz bilan uzviy bog'lay oladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalari zarur.

Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayonida ham e'tiborga olinishi lozim. Garchi bu fanni o'rganishdagi ko'plab qonun-qoidalar, til materiallari doirasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan yuz bersa-da, tilning sociolingvistik jihatlari, uni amalda qo'llash jarayonining yangicha, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi hayot talabidir. Bu, dastavval, til

materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me'yoriy muammolarni ma'lum darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog'liq.

Negaki, ko'p asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulug' ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz o'zbek nutqi madaniyatini, ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos ravishda o'rganish barchamiz uchun zarurdir.

“Koreys millatini o'z-o'zini anglashning kuchli idrok etishiga koreys tili turtki bo'lgan bo'lsa, Koreys alifbosi “Hangil” esa tizimlilik bilan dunyoning boshqa alifbolaridan ajrallib turishi bilan bir qatorda, aniq ilmiy hamda falsafiy ildizlarga ega bo'lgan yozuv turi hamdir ”³.

Ko'p asrlar davomida mamlakatning turli jabhalari Xitoy ta'siri ostida bo'lishi, Yaponiyaning harbiy mustamlaka davlatiga aylantirilganligi, 2-Jahon urushidan so'ng Koreya sarhadlarida Amerika qo'shinlarining saqlanib turishiga qaramasdan, koreys xalqining o'ziga xosligini, nafisligini, koreys xalqining milliy urf-odatlarini, ichki kechinmalarini o'zida saqlab qololgan koreys tili – dunyoning qadimiy tillaridan hisoblanadi.

Koreys tili va koreys yozuvi koreys xalqining faxri, g'urur hamda iftixori hisoblanadi.

Biron tilning so'z tarkibi hali u tilning to'liq tarkibini belgilab bermaydi. O'zlashgan so'zlar mazkur tilda qurilishashyosi singari namoyon bo'ladi. Koreyslar bir etnik guruhga mansub bo'lib, bir tilda ya'ni, koreys tilida so'zlashadilar. Ular mo'g'ul qabilalarining davomchilari hisoblanib, Koreya yarim oroliga bronza asrining neolit davrida kochib borishgan va shu tariqa o'troqlashishgan. Koreys tili Koreya Respublikasining davlat tili hisoblanib,

³Koreya Respublikasi // Sonlar va faktlar. - Seul. 2001. B. 15-16.

Janubiy Koreyada "한국말"- [Hangukmal], Shimoliy Koreyada esa "조선말"- [Cho'sonmal]-deb yuritiladi. Koreya aholisi 49 mln.dan ziyod bo'lib, ulardan taxminan 530 ming nafari MDH davlatlarida istiqomat qiladi. Bu ko'rsatgich esa chet elda istiqomat qiladigan koreyslarning 7,6% tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, til jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisa ekan, tildan foydalanayotganda muloqot hosil bo'ladi.

Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millatning o'ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib, o'rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy xarakter deganda, ma'lum bir ijtimoiy guruh o'rtasida asrlar mobaynida avlodda avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga muayyan millat sig'ingan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarsi jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu o'z-o'zidan muloqot xulqida namoyon bo'ladi.

Yer yuzi tabiati naqadar rang-barang va xilma-xil bo'lsa, unda yashovchi aholining etnik xususiyatlari ham shu qadar turli-tumandir. Yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'sirida har bir millatning alohida bo'rtib turgan o'ziga xos xarakter xususiyatlari bo'ladi. Turli millat vakillari o'rtasida bo'ladigan o'zaro muomala jarayonida bu kabi jihatlarni inobatga olmaslik turli tushunmovchilik, kelishmovchilik va hatto to'qnashuvlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Nolisoniy vositalarni qo'llashda ham milliy o'ziga xosliklar ko'p kuzatiladi. Jumladan, shunday imo-ishoralar borki, ular shartli xarakterga ega bo'lib, milliy xususiyatlarni kasb etadi. Boshqa millatda bu hech qanday kommunikativ vazifa bajarmaydi yoki boshqa ma'noni anglatadi.

Masalan, xayr ma'nosida ruslar kaftini o'zidan orqaga qilib, vertikal holda takror va takror silkitadi, italyanlar kaftini o'ziga qaratib, vertikal holatda silkitadi.

Salomlashish jarayonida Yevropa xalqlari hurmat kategoriyasiga u qadar chuqur urg'u bermaydi, ya'ni ularda kattalarga ham, kichiklarga ham bir xil salom

berib, bir xil so'rashishadi. Hindistonda salomlashishda kaftini qovushtirib salomlashishadi. Eskimoslar esa, salomlashish uchun bir-birlarini burunlarini ishqashadi.

Qadimgi Xitoyda esa, yuqori tabaqa vakillari uchrashganda, har biri o'ng qo'li bilan chap qo'lini siqishar ekan. Koreyada esa, ko'rishish chog'ida ikki qo'lini yonga tushirgan holda egilib salomlashishadi.

Salomlashish hamma'lumbir millatning milliyligini, bir – birigabo'lganhurmatni ifodalaydi. Ularning millatidagi hurmatni, shu bilan bir qatorda, milliy mentalitetni ochib berishgaham katta xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Koreys tilida hurmat kategoriyasi boshqa millat tillariga qaraganda anchayin kuchli anchayin e'tiborni talab etadi. Ushbu mavzuimiz orqali koreys xalqining hurmat kategoriyasiga kuchli e'tibor berishi va bu orqali milliy o'zligini namoyon etishini ko'rib o'tish bizning pirovard maqsadimizdir. Zero, koreys va o'zbek tillari bir til oilasiga mansub hamda madaniy ko'rsatkichlar jihatdan ham bir-biriga yaqin xalq hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, koreys tilida mavjud va murakkab jarayon hisoblanmish hurmat kategoriyasining o'zbek tilida mavjud yoki mavjud emasligi, uning o'rni, tarjima hodisasi, shuningdek, muloqot obyekti ekanligini tahlil qilib o'rganish mavzuimizning dolzarbligini taqozo etadi.

Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, asrlar mobaynida Koreyada azaldan qadrlanib kelgan “언어예절”- “ Til madaniyati” o'sha millatning milliy ruhini, e'tiqodini, muomala madaniyatini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot predmeti: Koreys va o'zbek tillarida hurmat kategoriyasining lingvistik va ekstralingvistik tahlili.

Tadqiqot obyekti: koreys va o'zbek tillarida ifodalanadiga hurmat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar, qo'shimchalar.

Tadqiqot metodologiyasi va metodlari: tadqiqot metodologiyasi asosini Prezidentimizning ta'limga oid asarlari va ma'ruzalari tashkil etadi hamda koreys tili lug'atlarida olingan so'zlar tashkil etadi. Ishni yoritish davomida sinxron va

diaxron tamoyillariga asoslanildi hamda analiz, sintez, an'anaviy va system metodlariga murojaat qilindi.

Tadqiqot maqsadi: koreys tilida ifodalanuvchi hurmat kategoriyasining o'zbek tilida ifodalanishi, ularning o'rne va tarjimalari, ularning ifodalanishidagi farqlarni belgilash.

Tadqiqot vazifasi: yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni belgilash mumkin:

- Koreys tilidagi hurmat kategoriyasini o'rganish va izoh berish;
- Hurmat kategoriyasiga oid adabiyotlarni va ma'lumotlarni o'rganish va tahlil etish;
- Koreys va o'zbek tilidagi hurmat ma'nosini beruvchi so'zlar yoki qo'shimchalarning xususiyatlarini ochib berish;
- Koreys tilidagi mavjud hurmat ma'nosini beruvchi lingvistik va ekstralingvistik vositalarning o'zbek tilidagi mavjud vositalar bilan mos kelishini ko'rib chiqish;
- Mavzuga oid muammolarni bartaraf etish yo'llarini belgilab olish.

Ilmiy yangiligi: Koreys tilidagi hurmat kategoriyasi hozirgi kunga qadar dunyoning ko'plab tilshunoslari tomonidan o'rganilib, o'sha tillar asosida tahlil qilingan bo'lsa-da, o'zbek tili bilan moslashtirilib tahlil qilinishi ilk bor o'rganilmoqda.

O'rganilganlik darajasi: Koreys tilida hurmat kategoriyasi alohida muhim o'rin tutadi. Negaki, hurmat kategoriyasi, uning ekstralingvistik xususiyati ushbu xalqning ham muloqot jarayonida, ham madaniy jarayonlarda ham ishlatishi lozim bo'lgan hodisadir. Umumiy olib qaraganda Sharq mamlakatlari orasida Koreya va O'zbekiston ko'p jihatdan bir-biriga o'xshab ketadi. Shu sababdan koreys tilida mavjud kategoriyalar, ularning o'zbek tili grammatikasi bilan o'xshash va noo'xshash tomonlarini o'rganish BMIning bosh maqsadi bo'lib qoldi. Mamlakatimizning Koreya bilan iqtisodi, siyosiy, ijtimoiy, madaniy aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Koreya Respublikasida "biz istiqlol va islohatlar orqali taraqqiyotga erishmoqdamiz", degan ibora ko'p qo'llanadi. Bu jumlaning mohiyati

sharqona mehmondo'st va mehnatsevar koreys xalqining tabiatida ham namoyon bo'ladi. Koreya Respublikasi Osiyo -Tinch okeyani mintaqasi davlatlari orasida O'zbekiston mustaqilligini birinchilar qatorida tan olgan davlatdir. Mamlakatimizning savdo-iqtisodiy hamkorligini yanada rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Hamkorlikda ko'plabyirik loyihalar amalga oshirilib, zamonaviy raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, sanoatning yangi tarmoqlari o'zlashtirilmoqda. Madaniyat va sa'nat, ilm-fan, ta'lim va boshqa qator sohalarni o'z ichiga olgan ijtimoiy majmuaga ham kata e'tabor qaratiladi. Koreya xalqaro agentligi (KOICA) ijtimoiy sohadagi aloqalar rivojiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Aloqalar rivojlanib borgan sari koreys tili, koreysma'daniyati, tarixi, urf-odatlar, odamlarning turmush-tarzi va boshqalarga bo'lgan qiziqish kuchaymoqda. Xozirga koreys tilini o'rganayotganlar koreys tili bilan birgalikda, yuqorida sanab o'tilgan Koreyaning o'ziga tortadigan tomonlarini ham o'rganishmoqda. Koreys tili ham o'zining boy tarixiy sahifalari bilan odamni lol qoldiradi. Buni koreys tilini o'rganish jarayonida yaqqol ko'rish mumkin.

Hozirda yurtimizda xorijiy tillarga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimov shunday deydilar: - "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan halqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Koreys tili ham ingliz, fransuz, nemis tili kabi chet tillari qatorida keng miqyosida o'rganilmoqda. Bular davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarning rivojlanib borayotganidan hamda koreys tiliga bo'lgan talabning oshayotganligidan dalolat beradi. Hozirda Toshkent va Samarqand oliy o'quv yurtlarida koreys tili yo'nalishlari ochilgan bo'lib, u yerda talabalar koreys tili va adabiyoti hamda Koreya tarixi, ma'daniyati, iqtisodiyoti bo'yicha tahsil olmoqdalar. Bularning barchasi yoshlarning ilm-fanni chuqur egallashlari uchun yaratib berilgan ulkan shart-sharoitlar hisoblanadi. Mustaqillikka erishgandan keyin yoshlarga, ayniqsa yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor kuchayadi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarni jahon fani va bilimlari xazinasidan

bahramand qilishga katta e'tibor berilmoqda.”Buni amalga oshirilayotgan isolohatlarda yaqqol ko'rishimiz mumkun.

BMIda o'rganilayotgan mavzu 권재일 “한국어 통사론”⁴, 남기심 “표준국어 문법론”⁵, 고영근. “한국의 언어 연구”⁶ olim va tilshunoslarning darslik kitoblarida keng o'rganilgan ekan.

⁴권재일 “한국어 통사론”.2004. (Kvon Che Il, “Koreys tili sintaksisi”)

⁵남기심 “표준국어 문법론”. 2001. (Nam Gi Shim, “ Adabiy til nazariy grammatikasi”).

⁶고영근. “한국의 언어 연구”. 2004. (Ko Yon Gin, “Ona tili grammatikasi”).

I BOB HURMAT KATEGORIYASINING XUSUSIYATLARI

Til jamiyatda paydo bo'lganidan boshlab hamisha ijtimoiy harakterga ega bo'lib, kishilarning ijtimoiy mehnat jarayonida yuzaga kelgan o'zaro aloqa bog'lash, fikr almashishga xizmat qiluvchi vositadir. Shu bilan bir qatorda u ham millatning ma'naviy qiyofasini ham o'zligini ifoda etuvchi muhim ramzlardan biri, insoniyat tafakkurining bebaxo ko'zgusi hamdir. Har bir tilning dunyoga kelish sabablari, shakllanish hamda taraqqiy etish tarixi bo'lgani kabi koreys tilining ham o'ziga xos kelib chiqish tarixi va dialektikasi bor.

Koreys tili boshqa tillarga nisbatan ancha keyingi davrlarda o'rganila boshlandi. Koreys tilining tarixiy negizlarini o'rganishga xususan keyingi omillar sabab bo'lgan. Ma'lumki, Koreya ko'p asrlar davomida Xitoyning mustamlakasi bo'lgan. Bu koreys tilining tarixiy negizlarini o'rganishga bo'lgan birinchi sabab bo'lsa, ikkinchi muammo esa, XV asrgacha, ya'ni, to qirol Sedjon alifboni ixtiro qilgunga qadar, koreyslarning o'z shaxsiy yozuvlari bo'lmaganligidadir⁷

Koreya Xitoyning 1,5 ming yildan ortiq mustamlakasi bo'lgani bois ba'zi tadqiqotchilar, xususan Edkins⁸ koreys tilini xitoy tilining boshqacha ko'rinishi deya ta'kidlagan. Ammo bunday fikrlashning o'zi xatodir. Koreys tili leksikasining 75 % xitoy tilidan kirib kelgan so'zlar tashkil qilsa-da, bu koreys tili o'zining mavqeini yo'qotgan degani emas. Shuningdek, koreys xalqi boshqa millat va elatlarga kishilar o'rtasidagi munosabatlar jihatidan o'xshab tursa-da, ular o'rtasida turli noo'xshashliklarning ham guvohi bo'lishimiz mumkin.

⁷Чжун Сук-Бэ, Пак Чон Хе, Ю.В. Ванин. Лекции по истории Кореи.- М.Экслибрипресс, 1997.

⁸J.Edkins 1823 yil 19- dekabrda Angliyada tavallud topgan.57 yil davomida Xitoyda, shundan 30 yil Pekinda yashagan. U tarjimon va tilshunos sifatida nom qozongan. Uning ilmiy izlanishlari asosan xitoy tili va uning tuzilishi hamda buddizm diniga bag'ishlangan.

“ 언어 예절 ” ya’ni “Muloqot xulqi” bilan tanishar ekanmiz, avvalo, koreys tilidagi muloqot xulqining kategoriyalarini bilishimiz lozim bo’ladi. Koreys tilida hozirda quyidagi muloqot kategoriyalari mavjud:

1. 높임법- hurmat kategoriyasi.
2. 완곡어법- aylanma muloqot kategoriyasi.
3. 인사법- salomlashish va xayrlashish kategoriyasi.
4. 호칭법과 지칭법- atamalar kategoriyasi.

Endi esa ushbu kategoriyalarga misol keltirib o’tamiz:

- 1) 철수야, 선생님께서너교무실에오라고하셨습니다.

Chol Su, seni o’qituvchimiz kelsin, deb aytdilar.

- 2) ㄱ: 너 왜이렇게 쌀이 찼니?

Sen nega bunchalik semirib ketding?

Koreyslarda aylanma muloqot ya’ni evfimizm juda ko’p ishlatiladi va kishilarning ko’nglini og’ritib qo’ymaslik uchun yumshoq gapirishadi.

Yuqoridagi gapni yumshoqroq qilib ifodalashsa, quyidagicha gapirishadi:

요즘 더 건강해 보이네요.

Shu kunlarda sog’lom ko’rinyapsan

2. 인사법- salomlashish va xayrlashish kategoriyasi:

- 1) 안녕하십니까?- Assalomu alaykum!

- 2) 안녕!- Salom!

- 3) 안녕히 가십시오!- Yaxshi boring!

3. 호칭법과 지칭법- atamalar kategoriyasida ma'lum bir kasb, fan va turli sohalarga oid terminlar ishlatiladi. Qarindoshlik atamalari ham shular jumlasidandir:

1) 아버지, 어디 계세요?

Dada, qayerdasiz?

2) 안과 병동에 근무하는 저 호사는 마음이 참 예쁘구나!

Ko'z kasalliklari bo'limida ishlaydigan ana u hamshira qalban chiroyli ekan.

Qadimdan an'ana bo'lib kelgan mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish koreyslar xarakterining eng muhim xususiyatlaridan biri sanaladi.

Qadimgi davrda shakllangan mehmondorchilik odati hayotiy zaruratlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli barcha ijtimoiy bosqichlardan o'tib bugunga qadar yetib kelgan.

Kattalarni hurmat qilish Sharq xalqlarining, jumladan, koreyslarning ham qadimiy udumlaridan bo'lib, bu odat asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Koreys xalqi ham o'zbek xalqi singari kattalarga hurmat, kichiklarga izzat naqliga amal qilishadi.

Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalash, barchaga teng muomalada bo'lishni uqtirib kelishadi. Bu esa koreys xalqining o'ziga xos tomonlaridan biridir.

Koreys millati o'ziga xos xarakterga ega bo'lgani uchun muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, o'ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib, o'rganish mutlaqo mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xaraktering uzviy bir qismi bo'lib, bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Koreys tilida har doim so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida baholash (o'zaro hurmat va izzat) shakllarini ifodalaydigan so'zlar ishlatiladi. So'zlovchining yoshi katta, tinglovchining yoshi kichik bo'lsa, unga 낮춤말로- izzat bilan gapiriladi. Ya'ni uni o'z mavqeidan pastroq ma'noni ifodalovchi so'z tanlanadi. Biroq so'zlovchining mavqei va yoshi har qancha ulug' bo'lsa-da, har jihatdan kichik (mavqei, yoshi) bo'lgan ko'pchilikka murojaat qilganda, 높임말- hurmat shaklidan foydalaniladi.

Hurmat shaklini ifodalovchi 주체높임-subyektining hurmat shakli- 으시 nafaqat fe'lga, kesim vazifasida kelgan sifatga, otha va ravishga ham qo'shilishi mumkin.

예: 저분이 박 선생님이십니다.

Bu kishi Pak o'qituvchi bo'ladilar.

아버지께서 신문을 읽고 계십니다.

Dadam(lar) gazeta o'qib o'tiribdilar.

그분이 아주 예쁘십니다.

U kishi juda chiroyli ekanlar.

그 한국에서 온 선배님의 바름이 너무 빠르셔서 알아듣는 것이 무척 어려워요.

Koreyadan kelgan kishining talaffuzi juda tezlik(lar)i sababli tushunib olish g'oyatda qiyin.

Tinglovchining mavqei ulug' bo'lganda, harakat subyektini so'zlovchidan nufuzli bo'lsa ham, so'zlovchi unga (-으)시 qo'shimchasini qo'shmaydi.

예: 할아버지, 아버지가 아직 회사에서 안 왔습니다. (o)

할아버지, 아버지께서 아직 회사에서 안 오셨습니다. (x)

Agar subyekt oliy va yuqori martabali kishilar (vazir, president kabilar) haqida yangilik yetkazishda, axborotlarni va rasmiy hujjatlarni yozishda (-으)시 qo'llanilmaydi.

예: 우즈베키스탄 대통령은 한국을 방문할 예정입니다.

O'zbekiston Prezidenti Koreyaga tashrif buyurish arafasida.

세종대왕은 1443 년에 한글을 창제했습니다.

Qirol Sejong 1443-yil koreys alifbosini yaratgan.

Agar subyekt ikki va undan ortiq kishidan ortiq bo'lsa, ya'ni jamoa bo'lsa, (-으)시 hurmat kategoriyasi qo'shimchasi qo'llanilmaydi. Buni quyidagi misollarda ko'rib o'tishimiz mumkin:

예: 선생님들은 날마다 학교에서 학생들을 가르칩니다.

O'qituvchilar har kuni o'quvchilarga ta'lim beradi.

오늘은 다양한 나라에서 온 손님들을 위해서 우즈베키스탄 전통 문화에 대해서 재미있는 영화가 제공되었습니다.

Bugun turli mamlakatlardan kelgan hurmatli mehmonlarga O'zbekistonning milliy madaniyati haqidagi qiziqarli film namoyish etildi.

Ikki kishi o'rtasidagi suhbat uchinchi shaxs haqida ketayotgan bo'lsa, tinglovchi so'zlovchidan kichik bo'lsa-da, gap ketayotgan uchinchi shaxs yoshiga qarab (-으)시 hurmat shaklini yasovchi qo'shimchani qo'llaydi.

예: 딘도라, 당신의 아버지께서는 무슨 일을 하십니까?

Dildora, sizning otangiz nima ish qiladilar?

철수씨, 오빠는 지금 어디 계십니까?

Chol Su akangiz qayerdalar?

아버지, 할아버지는 친척 집에 가셨습니다.

Dada, buvam qarindoshimiznikiga ketdilar.

Suhbat hurmatli subyektga taalluqli jihatlar yoki uning a'zosi haqida gap ketganda ham (-으)시 hurmat shaklini yasovchi qo'shimcha qo'llaniladi.

예: 한국에서 오신 김 선생님의 연세가 많으십니다.

Koreyadan kelgan Kim o'qituvchimizning yoshlari ulug'.

학생들을 가르치기 위해서 미국에서 새로 온 선생님의 키가 작으십니다.

Talabalarga ta'lim berish uchun Amerikadan kelgan o'qituvchimizning bo'ylari kichik.

선생님, 시간이 있으십니까?

Ustoz vaqtingiz bormi?

Koreys tilida ba'zi so'zlarning alohida hurmat shakllari mavjud:

자다 - 주무시다 - uxlamog;

죽다 - 돌아가시다 - o'lmoq, vafot etmoq;

있다 - 계시다 - bor bo'lmoq;

먹다 - 드시다 - 잡수시다 - yemoq;

예: 지름 아버지께서는 자신 방에서 주무시고 있습니다.

Hozir dadam o'z xonalarida uxlayaptilar.

할머니께서는 점심 드셨습니까?

Buvim tushlik qildilarmi?

1.1. Hurmat kategoriyasining norasmiy va rasmiy uslubi

Hurmatning rasmiy uslubi marosimlardagi nutq va ma'ruza, rasmiy davralarda ish yuzasidan uchrashganda ishlatiladi. –습니다/-ㅂ니다 shakllari gapda kesimlikni shakllantiradi. Hurmatning yuqori darajadagi shakli rasmiy suhbatlar uchun mo'ljallangan bo'lib, tinglovchiga nisbatan hurmatni ifodalaydi. Agar ikki suhbatdosh birinchi bor uchrashayotgan bo'lsa, tinglovchining lavozimi qandayligidan qat'iy nazar yoshi katta bo'lsa, hurmat kategoriyasi qo'llaniladi.

Hurmatning o'rta shaklida so'zlovchining mavqei va yoshi jihatidan katta bo'lgan tinglovchiga ehtiromi ifodalanadi. Hurmatning o'rta shakli o'zaro ikki yoshi ham mavqei ham ulug' bo'lgan kishilarga ham qo'llash mumkin.

So'zlovchining lavozimi yuqori yoki yaqin kishisi bo'lsa, unga quyi hurmat shaklini ishlatish mumkin. Shuningdek, quyi (takallufsiz) gazeta va jurnallarga maqolalar yozishda yoki biror xabarni e'lon qilishda ishlatiladi. Bunda o'quvchilarga nisbatan hurmatsizlik emas, balki ularga xolis munosabat ifodalanadi. Buni quyidagi misollarda bilib olishimiz mumkin:

예: 철수가 내일 학교에 갑니다.

Chol Su ertaga maktabga boradi.

지금 선생님은 밥을 먹고 있어서 우리와 함께 드라마를 볼 수 없습니다.

Hozir o'qituvchimiz ovqatlanayotgani uchun biz bilan kino ko'ra olmaydi.

여행을 잘 다녀오십시오.

Sayohatga yaxshi borib keling.

Hurmatning norasmiy shakli o'zaro yaqin kishilar o'rtasida qo'llanilib, so'zlovchining tenglovchiga nisbatan do'stona munosabatini bildiradi. Bu

uslubning ikki ko'rinishi mavjud bo'lib, ehtirom shaklidagi kesim -아(어/여)요, qo'shimchasi oddiy shaklida fe'lda qo'shilmaydi.

Ba'zan tenglovchini o'zidan yuqori qo'yib, haddan ortiq hurmat ko'rsatib gapirganda -(으)옵-, -삽/시입/사오, -잡/자옵/자오 qo'shimchalari qo'llaniladi. Bu ayniqsa, epostolyar janrida qo'llaniladi.

예:오늘 수업 후에 도서관에 갑니다.

Bugun darsdan so'ng kutubxonaga boraman.

어디에서 와요?

Qayerdan kelyapsan?

어디 가니?

Qayerga ketyapsan?

모든 일을 끝난 후에 집에 가.

Hamma ishlaringni tugatib, uyga bor.

1.2 Hurmat kategoriyasining leksik uslubi

Koreys tilida yuqori va quyi hurmatni bildiruvchi maxsus so'zlar ishlatidi. Bu 존경어 va 경어 deb nomlanadi. Ammo hamma so'zlar ham o'zining hurmat shaklida hurmat kategoriyasini tasovchi qo'shimchalarini qo'shganda, to'g'ri ma'no kelib chiqmaydi. Bu kabi so'zlarning maxsus qatori bo'lib, bu so'zlarni yoddan bilish lozim bo'ladi. Quyidagi jadvalga e'tibor beradigan bo'lsak, unda ba'zi bir fe'l va so'zlarning hurmat shaklini ko'rishimiz mumkin. Bu yuqorida aytilganidek 존경어 va 경어 deb atalib, ular ham bir vaqning o'zida hurmat shaklini

yasovchi qo'shimchalardan yasaladi. Ammo ularning o'zagi o'zgarish holatini ham ko'rishimiz mumkin.

Koreyaliklarga xos vazminlik va bosiqlik milliy xarakterning eng muhim belgisi hisoblanadi va uni biz o'zbeklar tomonidan to'g'ri anglashinuvi millatlararo muloqotni muvaffaqiyatli yo'lga qo'yishda, o'zaro izzat-ikrom ko'rsatishda va koreys tilini o'rganishda juda muhimdir. Har qanday holatda tanish va notanish kishilar bilan uchrashganlarida yoki xayrlashganlarida koreys xalqi engilgina bosh egib ta'zim qilib qo'yadilar. Bunday ta'zimda yoqtirgan yoki yoqtirmagan kishiga nisbatan ham xushmuomalalik bilan izzat-ikrom ko'rsatish ifodalanadi. Koreycha kinofilmlarini ko'rganimizda xatto sevishganlar ham bir-birlarini quchib, ehtirosiga berilganlarini, yoki hammaning oldida og'iz-burun o'pishganlarini ko'rmaymiz. Koreyada yigitlar o'zi yoqtirgan qizga ehtirosli muhabbat izhor qilish o'rniga uni elkasiga opichlab, uyigacha olib borib qo'yadi. Ma'lumki, biror kishining boshqa kishini yaqindan bilishi, tanishligi muloqotning asosiy tarkibiy qismini tashkil qiladi. Ijtimoy psixologiyada *bilish* atamasi ob'ektning nafaqat jismoniy xarakteristikasini balki xulq-atvor, dunyoqarash, qobiliyat, emotsiyalari nuqtai nazaridan ham bilishni nazarda tutadi. [Andreeva 2000: 119]. Muloqot jarayonida odamlar nafaqat bir-birlarini bilib olishadi, balki bir-birlari o'rtasidagi munosabat keyinchalik qanday bo'lishini ham bilib, belgilab oladilar. Bunday munosabatlar erkin, soxtalikdan holi bo'lishi uchun muloqot vaziyatidagi suhbatdosh hatti-harakatlarini to'g'ri tushunish ham muhimdir.

Koreys tilida emotivlik fe'lning morfologik strukturasi fe'l negizidan oldin yoki keyin keluvchi, nisbatni, gonorativni(murojaatning xushmuomalalik formasi), zamonni, modallikni, turni, sababni ifodalaydigan ko'plab (doimiy yoki flektiv) grammatik kategoriyalarga kiruvchi qo'shimchalar orqali ifodalanadi.

Koreys tiliga xos xushmuomalalikni, mehr muhabbatni, hurmat-ehtiromni ifodalovchi so'zlarning strukturasi va badiiy matnda, tilda qo'llanilishi masalasi koreys xalqining o'zlari uchun ham, bu tilni o'rganayotganlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Koreys tili darslik va qo'llanmalarida shu sababli bu masalani yoritishga katta-katta qismlar ajratiladi.

Koreys tili emotiv leksikani qo‘llanilish jihatidan qat’iy irearxik qoidalarga rioya qilishni talab qiladi. Nutq stili asosi murojaatdagi xushmuomalalik formalari asosida farqlanadi va bu sistema turli-tumanligi va murakkabligi bilan xarakterlanadi. Nutq etiketi (xushmuomalalik) dunyodagi birorta tilda koreys tilidagidek aniq va puxta shakllantirilmagan. Masalan, o‘zbeklarda o‘zidan kattalarga «siz» deya murojaat qilishning yagona belgisi mavjud bo‘lsa, koreys tilida xushmuomalalik barcha so‘z turkumlariga xos belgilar bilan ajralib turadi. Bunday xususiyatni yana yapon tilidagina ham kuzatish mumkin. [Lee and Ramsay 2000: 224]. Tabiiyki tilning bunday xususiyati sevgi emotivlarida ham o‘z aksini topmay qolmaydi.

So‘z turkumi	Umimiy so‘zlar	Hurmat	Kamtar
품사	예사말	종칭어	경어
Ot 명사	말 나이 밥 병 집	말씀 연세 진지 병화 댁	말씀
Olmosh 대명사	이사람 그사람 저사람 나 네	이분 그분 저분 저 너희	저 저희
Fe‘l 동사	주다 묻다	드리다 여쭙다	

	보다 자다 먹다 있다	뵈다 주무시다 잡수시다 계시다	
Qo'shimcha 조사	-이/가 - 에게	-께서 -께	

So'lovchining tenglovchini o'zidan kichik yoki kattaligiga qarab muomala qilishi hurmat kategoriyasi deyiladi. So'zlovchi suhbatdoshning yoshi, mavqei va o'zaro munosabatlariga ko'ra muloqot qilganda, har gap (kesim,)ning oxirida tugallovchi hurmat shakli qo'shimchasi qo'yilishi kerak. Ya'ni muloqot olib borayotgan kishing yoshiga qarab unga hurmat so'zlarni ishlatish lozim. Buni quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz:

Til uslubi		Darak	So'roq	Buyruq	Taklif	His-
damhageuch		gap	ymunmun	gap	gap	hayajon
Tugallovchilar		pyngseryunmun		mynglyngmun	chyngyungmun	n gap
jonggyeomye						gamtanmun
Rasmiy hurmat uslubi gyekshiche	Ehtiromva rasmiy noymal	-shunida/ beunida /hapnida	-shunka/ beunka/hapnuka	-(e)shipsio/ boshipsio	-beunida/ hapnida	
	Betaraf yesamal	-ne	-na, neka	-ge	-se	-guni
	Oddiy shakl	ne-da, da	-ni, (ha)ne, hani, -ji	-ara/era	-ja	gunmen

	ئاتۇمئال					
Norasmiy بىگىرىكشە	Ehtirom	-ا(ەر/ەر)و				
	ئوئمئال					
	Oddiy shakl ئاتۇمئال	-ا(ەر/ەر)و				

Yuqorida ko'rib o'tgan jadvaldagi so'zlar asosida gaplar tuzamiz va ularni tahlil qilamiz.

آبەرذىنى زىمىن ھىشەسىرى ھىوئىلىنى ھەگى گەسىنىدا.

Dadam hozir firmada majlis o'tkazyaptilar.

ھالآبەرذىنى گەبەگى زەرى بەنگە ۇئۇسىنىدا.

Buvaming sumkasi anavi xonada(lar)

Ushbu jadvalda berilgan qo'shimchalarni misollarda ko'rib o'tadigan bo'lsak, har bir darak gap, so'roq gapda hurmat kategoriyasining shakli o'zgarib boraveradi. Masalan:

آبەرذىنى زىمىن ھىشەسىرى ھىوئىلىنى ھەگى گەسىنىدا.

Dadam hozir firmada majlis o'zkazyaptilar

Ushbu misolda dadasining majlis o'tkazayotgani haqida ma'lumot berayapti.

آبەرذىنى زىمىن ھىشەسىرى ھىوئىلىنى ھەگى گەسىنىكا؟

Dadam hozir firmada majlis qilyaptilarmi?

Yuqoridagi misolda so'roq gap shaklini ko'rishimiz mumkin ya'ni bunda so'roq ohangi bilan aytilgan, so'ralgan ma'lumotni ko'ramiz.

김 대리, 지금 회사에서 회의를 하십시오.

Ishchi Kim, hozir firmada majlis o'tkazing.

Bu gap buyruq gap bo'lib buyurish ohangi bilan aytiladi. Koreys tilida buyruq shaklini yasash uchun -십시오 va-세요 va og'zaki nutqda fe'lning infinitiv shakli hamda -라 qo'shimchasi qo'shiladi. O'zbek tilida esa, -sin, -gin va fe'lning infinitiv shaklida yasaladi.

철수, 지금 회사에서 회의를 합시다.

Chol Su, hozir firmada majlis qilaylik.

Bu koreys tilida taklif gapga teng kelib, -하십시오 va og'zaki nutqda -자 qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. O'zbek tilida -y/ay Qo'shimchalari orqali yasaladi.

철수는 지금 회사에서 회의를 하고 있습니다!

Chol Su hozir firmada majlis qilmoqda!

Bu koreys tilida 감탄문 deb ataladi va kuchli hayajon bilan aytiladi. O'zbek tilida ham xuddi shunday.

II BOB. O'zbek va koreys tillarida hurmat kategoriyasining lingvistik va ekstralingvistik qiyosiy tahlili

Yuqoridagi bobda hurmat kategoriyasiga aynan to'xtalgan bo'lsak, ushbu bobda hurmat kategoriyasining lingvistik hamda ekstralingvistik jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Lingvistika bu tilshunoslik bo'lib, u tilga oid bo'lgan barcha muammolarni o'rganadi, ya'ni lingvistika tilshunoslikning aynan o'zi hisoblanadi. Til so'zlash fikrni ifodalash vositasi sifatida ham o'ziga xos bir olamdir uning xususiyatini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fan tilshunoslik (lingvistika) deyiladi. Lingvistika fani bir necha tarkibiy qism, ya'ni bo'limdan iborat.

O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin.

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy – badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2. Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi.

1. Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi. 2. Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi.

3. Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi.

4. Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Tilning inson uchun fikrlash vositasi bo'lishini, moddiy asos sifatida xizmat qilishini hali birinchi bosqich deyishimiz mumkin. Ikkinchi bosqichda esa fikrlash natijasida, tafakkur mahsuli reallashmog'i, ya'ni fikrlash markazi bo'lgan miyadan tashqariga chiqishi lozim. Bunda esa tilga bo'lgan ehtiyojning ikkinchi bosqichi boshlanadi - u kommunikativ vazifani bajarishga kirishadi.

Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning turli tillarda turlicha nomlanishidan qat'iy nazar, mana shu jarayonda u insonlar faoliyatida fikrlash va o'zaro ijtimoiy munosabat - muomala vositasi, materiali bo'lib qolaveradi. Ammo til muomala vositasiga aylandimi, uning tabiiy ravishda imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi.

Bu holni uchinchi bosqich deb atash mumkin. Bosqichlar soni ortib boravergani sari tilning ijtimoiylik imkoniyati ham tobora kengayishi ma'lum bo'lib qoladi. Ya'ni, inson nutqiy faoliyatida kommunikativ vazifani bajarayotgan til ko'magida suhbatdosh yoki tinglovchiga ma'lum axborot ham yetkaziladi. Demak, tilga bo'lgan munosabatda to'rtinchi bosqich yuzaga keladi.

Shu o'rinda akad.V.V.Vinogradovning muhim bir fikrini eslamaslik aslo mumkin emas. U tilning uchta eng muhim vazifasi mavjudligini ta'kidlagan edi: aloqa, xabar, ta'sir etish (*V i n o g r a d o v V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. – M.,1963, s.6.*).

Tilshunoslik fani umuman insoniyatga xos tilni yoki ma'lum bir xalq tilini o'rganish nuqatai nazaridan umimiy va xususiy turga bo'linadi.

Umumiy tilshunoslik tilni paydo bo'lishi, qarindoshlik aloqasi va umumiy nazariy masalasini o'rganadi.

Ma'lumki, tilning markaziy, yetakchi vazifasi – kommunikativ vazifadir. Har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishida, voqelanishida esa uch asosiy

unurning ishtiroki majburiydir, ya'ni so'zlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (o'quvchi). Ularning birortasiz muloqot jarayoni voqe bo'lmaydi.

Tinglovchiga ma'lum axborotni yetkazish maqsadi nutq jarayonini yuzaga keltiradi. Tabiiyki, aynan shu so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi «oldi-berdi»ning lisoniy ifodalanishi va anglanishi birinchi darajali e'tiborni tortadi. Tilda aloqa-aralashuv vositalari ichida an'anaviy eng katta birlik hisoblangan gapdan ham yirik qurilmalar mavjud bo'lib, ular murakkab sintaktik butunliklar deb nomlanadi.

Xususi lingvistika esa muayyan bir til xususiyatini tekshiradi. Shu jumladan olib qaraganda hurmat kategoriyasini lingvistik ya'ni til jihatidan ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'zbek tilida hurmat kategoriyasini yasovchi aynan qo'shimchalar yoki so'zlar mavjud emas. Faqatgina ot so'z turkumidagi ko'plik qo'shimchasi –lar qo'shimchasi otlarga qo'shilganda hurmat ma'nosini beruvchi so'z yasab berishi mumkin. Ya'ni dadamlar, oyimlar, buvimlar, tog'amlar kabi so'zlardagi ko'plik yasovchi qo'shimchalar ko'plik ma'nosida emas hurmat ma'nosida ishlatiladi.

Hurmat kategoriyasining ekstralingvistik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek xalqi azal-azaldan kattalarga hurmat borasida boshqa Sharq mamlakatlaridan ajralib turishadi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, lingvistikaga nisbatan ekstralingvistikada hurmatni ifodalash o'zbek xalqida ko'proq kuzatiladi. Avvalambor ekstralingvistika so'zining kelib chiqishi, uning ishlatilishi o'rni ma'nolariga to'xtaladigan bo'lsak, “ekstralingvistika” so'zi lingvistikadan tashqari tildan holi degan ma'nolarni anglatib til ishlatilmaydigan jihatlarda ya'ni mimika, imo-ishora kabi holatlardagi “muloqot”ni bildiradi. Demak, sharq mamlakatlarida hattoki mimika yoki imo-ishora orqali ham kattalarni hurmat qilib harakatlanish lozim bo'lganligi sababli hurmat kategoriyasining ekstralingvistik xususiyatlarini tahlil qilish o'rinlidir. Darhaqiqat, xalqimizda kattalarni ko'rganda qo'lni ko'ksiga qo'yib “Assalomu aleykum” deyish, yordamga muxtoj kishilarga yordam berish, kattalar gapirganda gapini bo'lmaslik yoki boshni egib turish va h.k.lar ekstralingvistik xususiyatlarni taqazo qiladi. Shuningdek, ekstralingvistika termini faqatgina tilga oid sohalarda emas balki boshqa sohalarda ham qo'llaniladi. Masalan

psixalogiyada ekstralingvistika so'zi nutq jarayonini bildiradi, ya'ni psixolog kishining ekstralingvistiknutqiga qarab uni psixologik baholaydi.

Tilshunoslikda esa tildan tashqari jarayon "so'zsiz muloqot" ekstralingvistik muloqot deyiladi. Koreys tilida hurmatni ifodalovchi ekstralingvistik tahlilni ko'rib chiqadigan bo'lsak, koreys tilida ham o'zbek tilidagi kabi kattalarga hurmat kichiklarga izzat ularning so'zsiz muloqotida ya'ni imo-ishora, mimikalarida namoyon bo'ladi.

2.1. O'zbek va koreys tillarida hurmat kategoriyasining lingvistik xususiyatini ifoda etuvchi so'zlar

O'tgan asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab matn lingvistikasi tez sur'atlar bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Unga bo'lgan qiziqish ortishiga, umuman, matn lingvistikasining mustaqil fan sifatida e'tirof etilishiga asos bo'lgan qoidalar ham umumlashtirildi. Nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi gap emas, balkimatndir; gap -fikir faqat xususiy holat, matnning alohida turidir. Matn sintaktik sathning oliy birligi hisoblanadi.

Konkret nutqiy asarlar – matnlarning asosida matn tuzishning umumiy tamoyillari yotadi; bu tamoyillar nutq sohasiga emas, balki til sistemasiga yoki til vakolatiga daxldordir. Bu jihatlar hisobga olinsa, shulardan kelib chiqilsa, matnni faqat nutq birligigina emas, balki ayni paytda til birligi deb ham hisoblash kerak.

Boshqa til birliklari kabi matn lisoniy belgilar sistemasining qismidir.

Matnni alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida har tomonlama o'rganish tilshunoslik doirasidagi fan – matn lingvistikasini yaratishni taqozo etadi.

O'zbek tilshunosligida ham matn va uning tadqiqiga bag'ishlangan talay ishlar qilingan. Xususan, M. Yo'ldoshev tomonidan badiiy matnning mazmuniy turlari

hamda intertekstuallik muammosi tasnif va tavsif qilindi, badiiy matnning lingvopoetik tahlili tamoyillari ishlab chiqildi, uning shakllanishida ishtirok etuvchi omillar monografik planda o`rganildi.

Kishilar o`rtasidagi aloqa – kommunikatsiya og`zaki nutqdan tashqari matnlar vositasida amalga oshar ekan, matn tuzuvchi tegishli badiiy yoki nobadiiy matn tipini tanlaydi.

Tilning kommunikativ vazifasi bilan birga estetik vazifasi haqida ham to`xtalish lozim. Chunki, so`zlovchi o`z fikrlarini qanday ifodalash, tinglovchiga aniq yetkazib berishni o`ylaydi, buning uchun o`ziga xos usul tanlaydi. Aynan shu jarayonda tilning estetik vazifasi yuzaga chiqa boshlaydi.

Badiiy matn ifoda imkoniyatlari va usullarining rang – barangligi, o`ziga xosligi va betakrorligi uning ta`sirchanligini ta`minlaydi. Matnning badiiyligini ta`minlashda ijodkor o`z badiiy niyatiga muvofiq ravishda ifoda imkoniyatlaridan istaganini tanlaydi. Bunday imkoniyat esa tilning barcha sathlarida mavjud.

Matnning badiiyligini ta`minlovchi vositalarni ikkiga bo`lish mumkin:

1. Lisoniy (lingvistik) vositalar.
2. Nolisoniy (ekstralingvistik) vositalar.

Lingvistik vositalarga fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarni kiritish mumkin.

Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo`lish, xafa bo`lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so`roq, ta`kid, norozilik, tilak – istak, qo`llab – quvvatlash kabi holatlarni yozuvda ifodalashda fonografik vositalardan foydalaniladi⁹.

She`riyatda, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi.

⁹ Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.- Toshkent, 2007. B-42.

Nasrda unlilarni cho`zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so`zlarni noto`g`ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta`minlanadi.

Tilning leksik sathini tashkil qiluvchi so`zlar atash, nomlashdan tashqari so`zlovchining shaxsiy munosabatini ifodalashga ham xizmat qiladi. O`ziga xos sintaktik qurilishga ega so`zlashuv nutqida esa, ritorik so`roq gaplar, so`z tartibining o`zgarishi, takror natijasida ham ekspressivlik ortadi.

Nolisoniy omillarga esa imo – ishora va hatti – harakatlar kiradi. Nutqimiz orqali ifodalangan axborotdagi kamchiliklarni imo – ishoralar va mimikamiz orqali to`ldirishimiz mumkin. Bu vositalar zarurat tug`ilgandagina yozma nutqqa ko`chiriladi.

Yuqorida aytib o`tilganidek koreys tilida hurmatni ifodalovchi so`zlar bir qancha bo`lib ular nafaqat hurmat so`zlar balki hurmatni ifodalovchi qo`shimchalardir ham. Hurmatni ifodalovchi alohida so`zlarga keladigan bo`lsak, ular quyidagilar:

죽다-돌아가시다- vafot etmoq;

가다- 가시다- bormoq;

이다-이시다- otdan fe`l yasovchi qo`shimcha;

읽다- 읽으시다- o`qimoq;

듣다- 들으시다-eshitmoq;

만들다- 만드시다-tayyorlamoq;

있다-있으시다- bor bo`lmoq;

자다- 주무시다- uxlamoq;

먹다-드시다-잡수시다- yemoq;

밥- 진지- ovqat;

생일- 생신- tug'ilgan kun;

나이- 연세- yosh;

집-택-uy;

말-막춤-gap;

Shuningdek, koreys tili lingvistikasida hurmat so'zlarni ifodalash maqsadida ishlatiladigan qo'shimchalar ham mavjudki, ular quyidagilar:

-는/은-께서는

이/가- 께서

에게- 께

에게서- 께

이름-성함

Koreys tilida har qanday gap kimdir tomonidan aytiladi va kimgadir yo'llanadi. Yo'llangan gap gapirayotganlarning o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hisobga oladi. Bu bilan bog'liq bo'lgan gapning subyektini ulug'lash yoki kamsitish usullaridir. Bu usul ayrim morfemalar yordamida ifodalanadi. Fe'lning o'zagiga (으)시 hurmat so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa, bu fe'l subyekti hurmat kategoriyasi deb ataladi. Fe'lning yakunlovchi shakliga aniq bir qo'shimchalar qo'shilib boshqa kishiga nisbatan hurmatni bildirgan kategoriya hurmat kategoriyasi deb ataladi. Ba'zi hollarda gapirayotgan kishi boshqa kishiga nisbatan hurmatni maxsus o'z ichiga hurmat-izzat ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalaydi.

2.2 . O'zbek va koreys tillarida hurmat kategoriyasining ekstralingvistik xususiyatini ifoda etuvchi so'zlar

Gapning subyekti gapirayotgan kishidan yoshi kattaroq bo'lsa, yoki uning ijtimoiy holati balandroq bo'lsa, yoki ular gapirayotgan kishi bilan qarindosh, yaqin munosabatlari bo'lmasa, gapirayotgan kishi fe'lining o'zagiga hurmatni (yuzaki ifodalab) quyidagi hurmat so'z yasovchi qo'shimchalari (-으)시 qo'shilishi mumkin.

Bu so'z yasovchi qo'shimcha faqatgina gapning subyekti tinglovchi yoki uchinchi shaxs bo'lgan holda ishlatiladi, agarda gapirayotgan kishi uchun subyekt sifatida chiqsa, bu qo'shimcha ishlatilmaydi. Subyektni hurmat kategoriyasi gapirayotgan kishi, gapning subyekt va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra aniqlanadi.

예: 삼촌께서는 지금 일하십니다.

Tog'am hozir ishlayaptilar.

어머니께서는 라디오를 듣고 계십니다.

Onam radio tinglayaptilar.

(-으)시 hurmat so'z yasovchi qo'shimchani ishlatish anchagina murakkab va chegaralangan. Quyidagi gaplarda bir necha misollar keltirib o'tiladi.

1) Tinglovchining o'rni gapning subyekti gapning subyektiga nisbatan yuqorida bo'lganda yoki gapning subyekti gapirayotgan kishidan yuqoriroq bo'lgan holda, ya'ni hurmat kategoriyasi quyidagicha: "tinglovchi > gapning subyekti > gapirayotgan kishi" bo'lsa (으)시 so'z yasovchi qo'shimchasi ishlatilmaydi.

예: 할아버지, 아버지가 전화했어요.

Bobo, dadam qo'ng'iroq qildi.

어머니, 형이 한국에서 편지를 보냈어요.

Oyi, akam Koreyadan xat yubordi.

2) Odamning tana qismlari haqida yoki yuqorida turgan kishining subyektiga tegishli bo'lgan narsalar haqida gap ketayotgan bo'lsa, izzat (hurmat shakli) ham o'z o'rniga ega, “시”so'z yasovchi qo'shimchasi chetdan hurmatni bildiradi.

예: 김 선생님은 연세가 많으십니다.

Kim domlaning yoshlari katta.

김 교수님은 따님이 많으십니다.

Professor Kimning qizlari ko'p.

3)Gapirayotgan kishi gapning subyektidan yoshi kattaroq yoki uning ijtimoiy holati balandroq bo'lsa, gapning subyeksi esa tinglovchidan yuqoriroq bo'lsa: “gapirayotgan kishi > gapning subyeksi > tinglovchi” “시”qo'shimchasi ishlatilishi mumkin. Tinglovchi, subyekt va gapirayotgan kishilar hurmatning past shaklidan yuqori shaklga tartib bilan ko'rsatilgan holda gapning subyeksi ulug'lanadi.

예: 마디나, 선생님께서는 오늘 출근하셨니?

Madina, o'qituvchi bugun ishga chiqdimi?

바흐티여르, 바흐티여르의 아버지께서는 무슨 일을 하시지요?

Baxtiyor, sening otang kim bo'lib ishlaydi?

4)Hatto gapning subyeksi yuqori hurmatga sazovor bo'lsa ham, kishi yuqori nisbatdagi yangiliklarning xabarlarini bilishi va rasmiy xaabarlarda “시”qo'shimchasi qo'shilmaydi.

Subyektni hurmat qilish kategoriyasining shakllari (주체높임의형식)	Fe'ning o'zagi + “시”
Subyektni hurmat qilish kategoriyasi	Agarda gapirayotgan kishi gapning subyeksi hurmatga sazovor deb

shartlari (객체높임의조건)	hisoblansa, subyekt esa tinglovchi yoki III shaxs bo'lganda
Hurmat kategoriyasidan istisno (예외)	1) Ireorxiyaga oid holati quyidagicha bo'lsa: “ tinglovchi > subyekt > gapirayotgan kishi” 2) Rasmiy xabarlarda. Agarda gapning subyekti jamoa bo'lsa.

Tinglovchining gapirayotgan kishi tomomnidan ulug'lash hurmatning nisbiy kategoriyasi deb ataladi.

Hurmat kategoriyasi gapirayotgan kishi tomomnidan tinglovchini yoshiga, holatiga hamda u bilan bo'lgan munosabatiga qarab aniqlanadi va hurmat shaklining qo'shimchasi orqali ifodalanadi.

Til uslubi		Darak	So'roq	Buyruq	Taklif	His-
담화계층		gap	의문문	gap	gap	hayajo
Tugallovchilar		평서문		명령문	청유문	n gap
종결어미						감탄문
Rasmiy hurmat uslubi 격식체	Ehtiromva rasmiy 높임말	-습니다/ ㅂ니다 /합니다	-습니까/ ㅂ니까/합니까	-(으)십시오/ 보십시오	-ㅂ시다/ 합시다	
	Betaraf 예사말	-네	-나, 는가	-게	-세	-구니
	Oddiy shakl 낮춤말	는다, 다	-니, (하)느, 하니, -지	-아라/어라	-자	구먼
Norasmiy hurmat uslubi 비격식체	Hurmat shakli 높임말	-아(어/여)요				
	Hurmatsiz	-아(어/여)요				

	shakli	
	낮춤말	

Gapning hurmat shakli gapirayotgan kishining tinglayotgan kishiga nisbatan hurmatni bildiradi. Va rasmiy suhbatda ishlatiladi. Agar gapirayotgan va tinglayotgan kishilar birinchi marotaba uchrashgan bo'lsalar gapning hurmat shakli ularning ijtimoiy o'rniga qaramay ishlatiladi. Gapning hurmat shakli yoshi katta odamlar tomonidan o'zaro suhbatda ishlatiladi. Gapning o'rta shakli gapirayotgan kishi tomonidan, agar uning o'rnini tinglayotganlardan balandroq bo'lsa, yoki yaxshi odamlar bilan suhbatlashganda ishlatiladi. Gapning o'rtacha (neytral) shakli o'rta yoshdan o'tgan odamlar o'rtasida ishlatilishi mumkin. Hurmatsiz shakli gazeta va jurnal maqolalarida ishlatilishi mumkin, lekin bu kitobxonlarni va gazetalarni past tuish emas, bu ularga nisbatan obyektiv munosabatdir.

Hurmatning norasmiy uslubi yaqin yoki do'stona aloqada bo'lgan kishilar uchun belgilangan va bu uslub subyektning tinglovchiga bo'lgan do'stona, iliq tuyg'ularini ifodalaydi. Hurmatning norasmiy uslubi gapning takallufsiz shakliga “요” qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasaladi.

예: 시장에 물건이 많습니다.

Bozorda narsalar ko'p.

이 가방은 질이 아주 좋습니다.

Bu sumkaning sifati juda yaxshi.

Koreys tilida hurmatning yuqori yoki past nisbatini ifodalash uchun maxsus so'zlar ishlatiladi. Albatta hamma so'zlar ham o'ziga teng bo'lgan so'zlarga ega emas. Faqatgina so'zlarning mosini ishlatib gapning to'g'ri qilish mumkin.

예: 그분 연세가 어떻게 되십니까?

U kishining yoshi nechada?

친지가 입에 맞으니까?

Ovqat sizga yoqdimi?

Ot kelishik qo'shimchasi bilan kelishi odatiy hol bo'lsada, quyidagi kabi qo'shimchalarsiz kelishi mumkin.yani belgisiz qo'llanilishi mumkin.

지금영화보러가요.

Hozir kino ko'rishga boraman.

지금영화를보러가요.

Hozir kinonni ko'rishga boraman.

Yuqoridagi misolimizda 를-ni ya'ni tushum kelishigi belgili va belgisiz qo'llanila oloshi koreys va o'zbektillarida bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkun.

Koreys tili agglyutativ ¹⁰ tillar guruhiga kiradi.Shuning uchun bu tilda so'z yasalishi hamda so'zning o'zgarish hollarida so'zning o'zagi o'zgarmaydi.So'zning o'zgarishi affikslar yordamida bo'ladi.Koreys tilida rod kategoriyasi grammatik jihatda namoyon bo'lmaydi. Ko'plikshakli esa otning o'ziga - 들-lar affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi. Shuningdek otning o'ziga kesim yasovchi – 이다qo'shimchasini qo'shilgan holda u ot-kesim vazifsini bajaradi.

집-uy 집들-uylar

나무-daraxt 나무들-daraxtlar

이과일이사과이다.

¹⁰Agglyutativ tillar guruhi - har bir grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi va bu qo'shimchalar so'zning oxiriga qo'shiladi.

Bu meva olmadir.

Bitta o‘zak morfemadan tashkil topgan ot sodda ot deyiladi. Sodda otning tub va yasama turi mavjud. 1) otning yasovchi affikslarga ega bo‘lmagan mustaqil lug‘aviy ma’noli qismi sodda tub ot deyiladi. Tub otlar tarkibida shakl yasovchi yoki so‘z o‘zgartuvchi affikslar qo‘llanishi ham mumkin: quyosh, dala, qush, kitob, quyoshdan, qushchalar, daladan, kitobning; 2) so‘zning mustaqil lug‘aviy ma’noli qismiga ot yasovchi affikslar qo‘shilishi bilan yasalgan shakli sodda yasama ot deyiladi. Sodda yasama otlar ichki va tashqi yasovchi affiks-lar asosida shakllanadi. Masalan: zamon+dosh, mehnat+kash, osh+paz, til+shunos kabilar ichki yasalish asosida; o‘ra+m, tutat+qi, isit+ma kabilar esa tashqi yasalish asosida vujudga kelgan yasama otlardir.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma’no va grammatik jihatdan bir-biriga tobelanish yo‘li bilan birikib, bitta narsa nomini ifodalashga xoslangan ot qo‘shma ot deyiladi. Qo‘shma otlar tarkiban bir xil va har xil turkumga mansub so‘zlarning sitaktik munosabatga kirishuvidan tuzilishi mumkin. Masalan: 1) ot+otdan- qo‘larra, otquloq; 2) sifat+otdan- ko‘ksulton, xomtok; 3) ot+sifatdan- gulbeor, oshko‘k; 4) son+otdan- mingoyoq, uchquduq; 5) ot+fe‘ldan- o‘rinbosar, beshiktervatar; 6) fe‘l+otdan- yoriltosh, kuyganyor; 7) fe‘l+fe‘ldan- iskabtopar, ishlabchiqarish.

Qo‘shma otlar ikkidan ortiq so‘z ishtirokida ham tuzilishi mumkin: gultojixo‘roz, gulhamishabahor. Bir xil grammatik shaklga ega bo‘lgan ikkita otning teng bog‘lanishidan tuzilib, bir umumiy ma’noni anglatadigan ot juft ot deyiladi. Juft otlarning qismlari mustaqil urg‘uli so‘z bo‘lib, ular talaffuzda yagona leksik urg‘uga birlashadi. Affikslar juft otning keyingi qismiga qo‘shiladi: ota-onada’n, osh-nonni’ng, aka-ukala’r, arz-dodimizni.

Juft otlar tarkiban har ikkala qismi mustaqil ma’noli so‘zlardan, bir qismi mustaqil, ikkinchi qismi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlardan va har ikkala qismi ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlardan tuziladi:

1. Har ikkala qismi mustaqil ma'noli so'z bo'ladi. Bunda juft so'zlar o'zaro ikki xil bog'lanadi: a) bog'lovchilarsiz: ota-ona, qozon-tovoq; b) -u, -yu yuklamalari yordamida: tog'-u tosh, olma-yu o'rik.

Juft otlarning har ikkala qismi mustaqil ma'noli so'zdan tuzilganda uning qismlari quyidagicha farqlanishi mumkin: 1) har ikkala qismi hozirgi tilimizda ishlatiladigan mustaqil so'z bo'ladi: o'yin-kulgu, tog'-tosh, sigir-buzoq, qo'y-qo'zi; 2) mustaqil so'zlarning ikkinchi qismi tarixiy yoki eskirgan so'z bo'ladi: ko'cha-kuy, el-ulus, idish-oyoq; 3) mustaqil so'zlarning birinchi yoki ikkinchi qismi o'zlashma so'z bo'ladi: kuch-quvvat, o'y-xayol (o'zbekcha+arabcha), tuz+namak (o'zbekcha+ tojikcha), savdo-sotiq, gap-so'z (tojikcha+o'zbekcha); 4) mustaqil so'zlarning har ikkalasi o'zlashma so'z bo'ladi: hol-ahvol, hisob-kitob, sir-asror (arabcha).

Juft otlarning tuzilshida so'zlar ma'no jihatdan quyidagicha munosabatda bo'ladi: a) mazmunan bir-biriga yaqin, umumiy bir guruhga mansub bo'lgan uyadosh so'zlardan: oyoq-qo'l, yuz-ko'z, , idish-tovoq, sigir-buzoq; b) ma'nodosh so'zlardan: o'y-xayol, kuch-quvvat, or-nomus, baxt-sodat, qo'ydi-chiqdi; v) qismlari zid ma'noli so'zlardan: yer-ko'k, er-xotin, o'g'il-qiz, keldi-kitdi, oldi-berdi; g) butun-bo'lak munosabatga ega bo'lgan so'zlardan: gap-so'z, tog'-tosh.

2. Bir qismi mustaqil, ikkinchi qismi mustaqil ma'noga ega bo'lmagan so'zlardan tuzilgan juft otlar: kiyim-kechak, bozor-o'char, temir-tersak, maza-matra, qand-qurs.

3. Har ikkala qismi ma'noga ega bo'lmagan so'zlardan tuzilgan juft otlar: g'ala-g'ovur, lash-lush, ikr-chikir, g'idi-bidi.

Juft otlar vositasida ifodalangan ma'no har xil bo'ladi: a) ma'no umumlashadi va kengayadi: qovun-tarvuz, qozon-tovoq, qo'y-echki; b) ma'no umumlashadi va jamlanadi: o'g'il-qiz, ota-ona, aka-uka.

Bundan tashqari, boshqa turkumga mansub soʻzlar juftlashib, otga koʻchishi ham mumkin. Bunday juft soʻzlar quyidagi turkumlarga doir soʻzlarning maʼno koʻchishi asosida yuzaga keladi: issiq-sovuq, oq-qora, kam-koʻst sifatdan; kam-koʻst, kam-koʻp ravishdan; yurish-turish, yeyish-ichish, yozuv-chizuv, keldi-ketdi, bordi-keldi, ur-yiqit feʼldan; adi-badi, qiy-chuv kabi taqlid soʻzlardan. Bir xil grammatik shakldagi soʻzlarni aynan takrorlash orqali leksik-grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi otlar takroriy otlar deyiladi. Takroriy otlar koʻplik va umumlash-tirish, maʼno kuchaytirish kabi leksik-grammatik maqsadlarni roʻyobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega boʻladi. Masalan: Xoʻjalikning bu yilgi daromadi yaxshi. Ombor-ombor gʻalla, xirmon-xirmon paxta yetishtirib moʻl hosil toʻplandi. Ogʻriq tobora zoʻrayib, uning suyak-suyagigacha zirqiratardi.

Takroriy otlarning maxsus takror turi ham mavjud boʻlib, bu turdagi takror otlar mustaqil soʻz va uning fonetik soyasi qolipida tuziladi hamda gumon, umumlashtirish, jamlash kabi qoʻshimcha maʼnolarni yuzaga keltiradi: ovqat-povqat, ilon-milon, non-pon, chang-chung, choy-poy, qand-qurs.

Murakkab soʻz birikmalarini turli usullar yordamida qisqartirish orqali yasalgan otlardir. Qisqartma otlar nutqning ixchamligini taʼminlovchi muhim vositalardan biridir. Masalan: BMT, OAK (Oliy Attestatsiya komissiyasi), Oʻzteleradio kompaniyasi, Oʻz-dunrobita. Qisqartma soʻzlarning baʼzilari tilimizda aynan oʻzlashtiril-gan holda ishlatiladi: YUNESKO, NATO, Koskom kabilar shular **jumlasidandir**. Koreys tilida otlar yasama, qisqartma va tub otlarga boʻlinadi. Yasama otlar soʻzning oʻzagiga affikslar qoʻshilishi bilan va boshqa soʻz turkumlarini qoʻshilishi bilan yasaladi.

1. Tub otlar (단일명사)

- 나무 - daraxt
- 옷 -kiyim

- 집 -uy
- 꽃 -gul
- 벨트 -rement

우리 공원에서 꽃들이 많습니다.

Bizning bog'da gullarko'p.

Koreys xalqi o'z farzandlarini juda go'daklik paytlaridan boshlab o'z nutqlarida xushmuomalalikning to'g'ri shakllaridan foydalanishni o'rgatadilar. Keyinchalik maktablarda bunday qoidalar batafsilroq o'rgatiladi va bu koreys xalqi o'z tillaridagi bunday qoidalarga qanchalik katta ahamiyat berishlarini ko'rsatadi. [Lee 2002].

Koreys tilida xushmuomalalik formalarining juda ko'pligi, ulardan vaziyatga ko'ra u yoki bunisini tanlashni murakkabligi nafaqat bu tilni o'rganuvchilar uchun, balki koreys xalqining o'zlariga ham ba'zan muayyan qiyinchiliklar tug'diradi

Xushmuomalalik murojaat formolari sistemasining funksiyaga kirishuvi turlicha omillarning o'zaro qorishuviga bog'liq. Ularni quyidagicha belgilash mumkin:

- 1)gapiruvchi shaxsning adresat bilan o'zaro munosabatlari;
- 2)gapiruvchi shaxsning sub'ekt va ob'ektga referentlari bilan munosabati;
- 3)referentlarning ob'ekt va sub'ektga munosabati.

Biz bu o'rinda bunday sistemaning leksik va grammatik mexanizmlari haqida emas, ko'proq bunday murojaat formalarining sevgi emotivlari orqali ifodalanishining umumiy xususiyatlarini, ular orqali koreys millatiga xos madaniy belgilarini aniqlashga harakat qilamiz.

Bunday o'ziga xoslik birinchi navbatda koreys tili olmoshlarini qo'llanilishida ko'zga yaqqol tashlanadi. Olmoshlar birinchi navbatda sodda va xushmuomalali,

izzat-ikromni bildiruvchi formalarga bo‘linadi. Shunday qilib odamlarni ifodalovchi barcha otlar ham yuqoridagidek ikki darajaga bo‘linadi.

Buni quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

1-jadval. Kishilik olmoshlari

	Sodda shaklbirlik	Sodda shaklko‘plik	Xushmuomalali shakl birlik	Xushmuomalali shakl ko‘plik
1 shaxs	나	우리	저	저희
2 shaxs	너	너의	당신	당신들
3 shaxs	그, 이	그들, 이들	그분, 이분	그분들, 이분들

2-jadval

Sodda va xushmuomalali shakldagi ayrim otlar va fe‘llar

Sodda shakl	Xushmuomalali shakl	Ma’nosi	Sodda shakl	Xushmuomalalilik shakli	Ma’nosi
밥	진지	taom	있다	게시다	bo‘lmoq (qolmoq)
집	댁	uy, hovli	죽다.	돌아가시다	vafot etmoq
말	말씀	so‘z(lar)	먹다-	잡수시다	ovqatlanmoq

나이	연세	yosh	아프다	편찮아/시/다	kasallanmoq
자다	주무시다	uyqu	주다	드리다	bermoq

Tadqiqotlarda aniqlanishicha eng ko‘p qo‘llaniladigan xushmuomalalikni ifodalovchi murojaat formalari qarindoshlik va mansabni ifodalovchi atamalar hisoblanar ekan. [Sohn 1994; Lee 1989; Chang 1996; Lee and Ramsey 2000]. O‘z navbatida bu guruhga kiruvchi murojaat formalari ham oddiy va xushmuomalalik tiplariga bo‘linadi va otga –^님 qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan, qarindoshlik atamalari 아줌마 ‘xola, amma’, 아저씨/ ‘amaki, tog‘a’, 할머니 ‘buvi’, 할아버지 ‘buva, bobo’ koreys xalqida nafaqat o‘z qarindoshlariga nisbatan, balki huddi o‘zbek tilidagidek begonalarga murojaat formalari sifatida ham qo‘llaniladi.

Bu o‘rinda barcha koreys xalqi xushmuomalalikni ifodalovchi murojaat formalari ikki mantiqiy asos orqali qo‘llashni tan olishadi: bunda xushmuomalalik formulasi gapiruvchi shaxsning tinglovchi shaxsga nisbatan izzat-hurmatini, u shaxsni o‘zidan yuqori tutishini bildiradi. Bunda sodda shakldagi murojaat atamasi bir darajadagi, mavqedagi kishilarning o‘zaro munosabatini ifodalasa, xushmuomalalikni ifodalovchi murojaat formalari faqat sub’ekt va ob’ektning ijtimoiy mavqesiga ko‘ra qo‘llaniladi.

Sodda va xushmuomalalikni ifodalovchi ot va fe’llarning miqdori cheklangan. Ular odatda, sub’ektni nominatsiyalash uchun qo‘llaniladi. (ikkinchi jalvalga qarang). Hozirgi zamon koreys tilida ob’ektni shaxsini ulug‘lovchi xushmuomalalik shakllari doimiy morfemalarga ega emas. Bunday cheklanganlik fe’llarga ham xos. Masalan, agar ob’ekt ulug‘lanadigan bo‘lsa, fe’l formalari quyidagicha o‘zgarishga duchor bo‘lishadi 주다 → 드리다 (bermoq), 묻다. → 여쭙다 (so‘ramoq), 보다 → 뵈다 - (ko‘rmoq).

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sharq mamlakatlari so'zlash xulqi, muomala madaniyati bilan ajrali turadi. Yuqorida ko'rib chiqqan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, koreys xalqi ham kattalarga hurmat va kichiklarga izzatga juda katta ahamiyat berishar ekan.

Koreys tilida hurmat kategoriyasi boshqa millat tillariga qaraganda anchayin kuchli va anchayin e'tiborni talab etadi. Ushbu mavzuimiz orqali koreys xalqining hurmat kategoriyasiga kuchli e'tibor berishi va bu orqali milliy o'zligini namoyon etishini ko'rib o'tish bizning pirovard maqsadimizdir.

Koreys xalqi asrlar mobaynida o'zihga xos urf-odat va marosimlarni o'tkazib keladi. Bu mamlakat azal-azaldan muloqot xulqi, kattalarni hurmat qilish kabi oliyjanob tuyg'ulari bilan tarbiyalangan xalq hisoblanadi.

Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millatning o'ziga xos urd-odatlari, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib o'rganish mutlaqo mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan mavzu yuzasidan o'zbek va koreys xalqining lingvistik va ekstralingvistik jihatidan bir-biriga qiyoslaydigan bo'lsak, ko'p jihatdan bir-biri bilan o'xshab ketadi. Ikki xalq orasida ham kattalarni hurmatlash, ularga nisbatan ehtiromli muomalada bo'lish, katta va kichiklarga bo'lgan munosabatlardagi farqlar ham bir-birini taqozo qilishi sezilib turadi.

Milliy xarakter deganda, ma'lum bir ijtimoiy guruh o'rtasida asrlar mobaynida avloddan avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga muayyan millat sig'ingan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu o'z-o'zidan muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Misol qilib aytganda, so'zlashganda, har xil marosimlardagi xatti-harakatlarda, salomlashganda, xayrlashganda, hattoki qarashdagi mimkalarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Koreya bir qancha madaniy meros va an'analarga ega bir necha ming yillik tarix turli madaniyatni yaratdi va ildizi hozirgi kungi hayot tarzida aks etadi. Siz madaniy hingiz mumkin. Bu haqda mashhur koreys olimi Koreyaning o'zi bir muzeydir deb aytgan. Ammo madaniy meroslar faqatgina jismoniy emas, madaniyat koreys xalqining hayot tarzida ham aks etgan. Bunday muhit sizga erkin ta'lim olish va mahoratingizni oshirishingiz mumkin. Mehmondo'stlik va ijtimoiy xavfsizlik, koreyaliklar umuman olganda, mehmondo'st xalq. Ularning chet el madaniyati va an'anelarini o'rganishga ishtiyoqi yuqori. Uchrashuv boshida uyalib turishsada, vaqt o'tishi bilan kirishib ketishadi va o'zlarining mehribonligini ko'rsatadi. Dunyoda sanoqli mamlakatlarda kechasiyu kunduzi bemalol yurish mumkin. Koreya ham shular jumlasiga kiradi. Shu sababdan chet ellik talabalar uchun Koreya tinch va xavfsiz mamlakat deb aytishimiz mumkin.

Koreya uzoq yillar davomida "Geum-su-gang-sang" deb atalgan, ya'ni shoyiga o'ralgan tabiiy chiroyli mamlakat. Xitoyliklar esa Koreyada tug'ilish va Geum-gan tog'ini ko'rishni umid qilardim deyishadi. Koreyaning uch tomoni dengiz bilan o'ralgani sababli Koreyadagi har bir inson yer va dengiz go'zalligi va ajoyibotidan bir vaqtda barhamand bo'lishi mumkin. Koreya mutlaq farqli to'rt faslga ega, siz har bir faslning o'ziga xos go'zalligidan zavqlanishingiz mumkin. Koreya kichik bo'lishiga qaramasdan har bir tumani bemiyl xususiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, g'arb mamlakatlariga nisbatan Koreyada ta'lim olish ancha arzoniga tushadi hamda turli grant va stipendiya sohibi bo'lish imkoni bor. Koreya hukumati horijlik talabalarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu asosda hukumat xalqaro hamjamiyatga yanada

yaqinlashadi deb ishonadi. Shu sababdan Koreya yoshlarni Koreyada ta'lim olishga taklif qiladi.

Hurmat kategoriyasi fikrni lo'nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun juda ham zarur bo'lgan vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy go'zallik, o'ziga xos jilo baxsh etib kelmoqda. Yuqorida kuzatganimizdek, boshqa xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi, o'zbek va koreys xalq maqollarida ham o'zbek va koreys xalqining turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, mehnatga, insonga munosabati to'liq ifodalangan. Darhaqiqat, maqollar xalqlarning ko'p yillik hayotiy kuzatishlari, turmush tajribalari asosida vujudga keladi. Shu sababli xalq maqollari katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribalari va kundalik turmushda necha martalab sinovdan o'tadi.

Har bir til o'zining ichki xususiyatlari, gramatik tuzilishi, qoidalari bilan ham boshqa tillardan ajralib turadi. O'zbek tilida besh xil fe'l nisbatlari mavjud. Ular: aniq nisbat, majhul nisbat, o'zlik nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbatlardir. Yuqorida tahlil qilganimizdek, koreys tilida ham fe'l nisbatlari mavjud bo'lib, ular to'rt xildir. Koreys tilida asosan orttirma va majhul nisbat ko'proq ishlatiladi. Qolgan ikki nisbat esa bir-biriga juda o'xshab ketadi. Koreys tilida orttirma va majhul nisbatlar, o'zbek tilidagi orttirma va majhul nisbatlarga deyarli o'xshab ketadi, ammo farqli tomonlari ham juda ko'pdir. Orttirma va majhul nisbatlar o'zbek tilidagi orttirma va majhul nisbatdan biroz murakkabroq bo'lib, ularda bu nisbatlar asosan ikki xil yo'l bilan qo'shimchalarni birikma yoki yakka holda qo'shish orqali hosil qilinadi. Tilning boyligi bo'yoqdor leksikaning, frazeologiya qatlamining boyligi bilan o'lchanadi. Xalqlar asrlar davomida yaratgan minglab ajoyib maqol va matallar hamda frazeologizmlar og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib, zamonlar osha tobora sayqallanadi, mazmuni yanada ravshanlashadi

Xalq maqollari she'riy va nasriy tuzilishga ega. Har ikki xildagi tuzilishga ega bo'lgan maqollar xalqning jonli so'zlashuv tiliga yaqin bo'ladi. Xalq maqollarining

mavzu doirasi juda keng bo'lib, ularda aks etmagan biror soha yo'q. Chunki xalq o'z hayotining barcha javhalari bo'yicha kuzatishlarhamda tajribalarni maqollar shaklida adabiy lashtiradi. Xalq maqollarimehnatsevarlikni ulug'lash, ishyoqmas va tekinxo'rlarga nafratmavzusi yetakchi o'rinlarda turadi. Masalan, "Baxt yalqovga begona", "Bersang-olasan, eksang-o'rasan", "Mehnatning tagi rohat" kabi ko'p maqollar borki, ular yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Xalq maqollarida yana keng yoritilgan mavzulardan vatanparvarlik hisoblanadi. Unda insonning kamoli va yaxshi fazilatlari vatanda ravnaq topishini aks ettiradi. Masalan, "Vatanni sevmok-iymondandir", "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas", "Vatan gadosi-kafan gadosi" kabi ko'plab maqollarda vatan mavzusi o'zining ixcham mantiqiy xulosasini topgan. Yana xalq maqollarining kattagina qismi ilm olish, kasb-hunar egallashni ulug'laydi, nodonlik va kaltabinlikni qoralaydi, kishini hushyorlikka, tadbirkorlikka da'vat etadi. "Bilak bilan bitmagan ish bilim bilan bitar", "Bilganning bilagi tolmas", "Yoshlikda olingan bilim-toshga o'yilgan naqshdir" kabi ko'plab maqollar bunda misol bo'la oladi. Shu bilan bir qatorda, maqollar ma'lum vaziyatda, ma'lum voqea-hodisa munosabati bilan yo fikmi boshlash oldidan, yo fikr bayoni jarayonida, yo fikr xulosalash maqsadida aytiladi. Uni keksa-yu yosh baravar aytganda, ko'proq hayotiy tajriba egasi bo'lgan katta avlod nutqida faolroqdir. Maqollarni ish jarayonida ham, oddiy yoki jiddiy muomala- munozaralarda ham, to'y-hashamlarda ham aytish mumkin. Har bir gapga bir maqolni qo'shib, fikrni dalillash, tasdiqlash yo inkor etish asosida nutqning ta'sir kuchi oshiriladi. Bunday nutq tinglovchini befarq qoldirmaydi, uning his-tuyg'ulariga tez ta'sir qilib, fikrini uyg'otadi, adolatli xulosalarga kelishi va hukm chiqarishini ta'minlaydi. Maqollarning axloqiy hukm sifatidagi mohiyati shunda ko'rinadi, zero, maqollarda hukmdan kechinmaga qarab boriladi. Ularda ifodalangan yagona hukm har bir tinglovchida har xil kechinma yo fikr uyg'otishi tabiiy, lekin baribir barcha bir xil xulosaga keladi. Shunday qilib, maqollarda ajdodlarini axloqiy qarashlari narsa- hodisalarga munosabatlari, ruhi va tafakkuri sezilib turadi. O'zbek va koreys xalq maqollarida bu xalqlarning dono siymosi, tarixiy taqdiri. mentaliteti, bag'rikengligi, saxovati, adolatpeshaligi, ilmga,

mehnatga chanqoqligi, bunyodkorligi, mehmondo'stligi, oilaparvarligi, bolajonligi, bolaparvarligi, mehmonnavozligi, to'g'riligi, sevgi-sadoqati, jo'shqinligi, ziyrakligi, g'ayrat- shijoati, quvonchi, iztirobi, dushmanlariga qahr-g'azabi, betakror urf-odatlari va an'analari yaqqol aks etib turadi. Xalq shu maqollari orqali kelajak avlodiga o'z turmush tajribalaridan saboq beradi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, asrlar mobaynida Koreyada azaldan qadrlanib kelgan “언어예절”- “Til madaniyati” o'sha millatning milliy ruhini, e'tiqodini muomala madaniyatini ochib berishga xizmat qilib kelmoqda.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, Markaziy Osiyo xalqlari azaldan bir-biri bilan hurmat kategoriyasini qo'llab gaplashgani bois, eng hurmat ma'nosidagi so'zlarni ko'p ishlatadigan xalqlar sifatida tan olingan.

Kattalarni hurmat qilish Sharq xalqlarining, jumladan koreyslarning ham qadimiy udumlaridan bo'lib, bu odat asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Koreys xalqi ham kattalaga hurmat, kichiklarga izzat naqliga amal qilishadi. Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalash, barchaga teng muomalada bo'lishni uqtirib kelishadi. Bu esa koreys xalqining o'ziga xos tomonlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent, O'zbekiston. 1997.
2. Kim Mun Uk, A.Ismaillov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. ToshDSHI. 2007.
3. Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, O'qituvchi. 1980.
4. Qudrat Musayev. Tarjima nazariyasi. -Toshkent, Fan. 2005.
5. Barkamol avlod orzuvi. -Toshkent. Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1999.
6. Rusch-o'zbekcha lug'at. I va II tomlar. -Toshkent. O'zbek sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi. 1984.
7. Vinogradov V.V. Russkiy yazik. MOskva. Nauka. 1972.
8. Choy Yun Xi. Problemi sopostavleniya vnutrenney formi frazeologizmov // Yazik soznaniye kommunikatsiya. Vipusk 16. Moskva> Maks Press. 2001.
9. 2. **A b d u l l a y e v F.**O'zbek milliy adabiy tili va uni o'rganishga oid masalalar // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. – Toshkent, 1973.
- 10.3. **A b d u r a h m o n o v X.** O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining sintaktik xususiyatlari bo'yicha kuzatishlar. – Toshkent: Fan, 1971.
- 11.4. **A b d u r a h m o n o v B.** Stilistik normalar haqida //O'zbek tili va adabiyoti, 1969, №6.
- 12.5. **A s q a r o v a M.** Respublika maktablarida ona tili o'qitish va nutq madaniyati // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. - Toshkent: Fan, 1973.
13. Choy Yun Xi. Frazeologicheskiy obraz v konnotativnom aspekte// Yazik soznanie kommunikatsiya. Vikusk 17. MOskva. Maks Press. 2001.

14. Shanskiy N. M. Frazeologiya sovremennogo russkogo yazika. Moskva. Visshaya shkola. 1985.
15. Yu. N.Mazur, L.B.Nikoliskiy. Bolshoy Russko-koreyskiy slovapi. 4-e izdanie, ispravlennoe. Moskva. “Jivoy yazik”. 2004.
16. 김종택. 국어휘론. 서울.(주) 탈출판사. 1992.
17. 박동근(1992),한국어상징어의형태.의미구조연구,건국대학교.
18. 이희승(1994),국어대사전,민중서림
19. 김창섭 (1983. 12.) 줄넘기와갈림길형합성명사에대하여. 국어학
20. 김일병 (2000) “합성어어휘자료”
21. 심현숙 (2011) 조선어합성어 연구, 삼성출판사
20. 김종택. 국어휘론. 서울.(주) 탈출판사. 1992.
22. 엿세스국어사전. (제 6 판) 서울. 전면개정판. 2006.
23. 이주행, 김상준. 아름다운한국어. 서울. 지구화사. 2005.
24. 표준국어대사전. 국립국어연구원. 서울. 독산동안. 1999.
25. 한러사전. 러시아어어문학사. 서울. 한국러시아문학회편. 2004.

FOYDLANILGAN LUG'ATLAR RO'YHATI

1. 엿세스국어사전. (제 6 판) 서울. 전면개정판. 2006.

2. 이주행, 김상준. 아름다운한글어. 서울. 지구화사. 2005.
3. 표준국어대사전. 국립국어연구원. 서울. 독산동안. 1999.
4. 한러사전. 러시아어어문학사. 서울. 한국러시아문학회편. 2004.
5. Cambridge Advanced Learner's Dictionary. Second Edition. Cambridge.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTI ADABIYOTLARI RO'YHATI

1. Ziyouz.com.
2. Kutubxona.uz.
3. Lex.com.
4. O`zMU.com
5. Love.kr.com
6. <http://www.koreaaward.com>
7. <http://www.geocities.com>
8. <http://www.naver.com>
9. <http://www.daum.com>
10. <http://ko.wikipedia.org/>
11. <http://www.onatili.uz>

